

TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA O‘ZBEKISTON MINTAQALARINING IXTISOSLASHUVI

Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Namangan filiali dotsenti

E-mail: a.qodirjonov@kiut.uz

ORCID: 0009-0003-3022-6879

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston hududlarining turizm sohasida ixtisoslashuvi orqali xizmatlar eksportini oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Hududiy resurslar, tabiiy-geografik sharoitlar va infratuzilma omillari asosida turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish zarurligi asoslandi. Rekreatsion, ziyorat, ekoturizm va tibbiy turizm yo‘nalishlari kesimida ixtisoslashuvning eksport hajmiga ta’siri baholandi. Turizm klasterlarini shakllantirish, hududlararo integratsiya va xizmatlar sifatini oshirish orqali xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari hududiy turizm siyosatini takomillashtirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: turizm eksporti, hududiy ixtisoslashuv, turizm klasteri, ekoturizm, rekreatsion turizm, tibbiy turizm, raqobatbardoshlik, infratuzilma

Аннотация

В данном исследовании проанализированы возможности увеличения экспорта туристических услуг за счет специализации регионов Узбекистана. Обоснована необходимость развития туристических направлений с учетом региональных ресурсов, природно-географических условий и инфраструктуры. Оценено влияние специализации по направлениям рекреационного, паломнического, экологического и медицинского туризма на объем экспорта. Определены возможности повышения конкурентоспособности на международном рынке через формирование туристических кластеров, межрегиональную интеграцию и улучшение качества услуг. Результаты исследования направлены на совершенствование региональной туристической политики и диверсификацию структуры экспорта.

Ключевые слова: экспорт туризма, региональная специализация, туристический кластер, экотуризм, рекреационный туризм, медицинский туризм, конкурентоспособность, инфраструктура

Abstract

This study analyzed the potential for increasing tourism service exports through regional specialization in Uzbekistan. The need to develop tourism directions based on regional resources, natural and geographical conditions, and infrastructure was substantiated. The impact of specialization in recreational, pilgrimage, ecological, and medical tourism on export volumes was evaluated. Opportunities to enhance international competitiveness through tourism cluster formation, interregional integration, and service quality improvement were identified. The findings contribute to improving regional tourism policy and diversifying the structure of service exports.

Keywords: tourism export, regional specialization, tourism cluster, ecotourism, recreational tourism, medical tourism, competitiveness, infrastructure

KIRISH

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, turistik manzillar jozibadorligini oshirish orqali xorijlik mehmonlar sonini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui amalga oshirilmoqda. Xususan, tarixiy-madaniy, rekreatsion, ziyorat turizmi bilan bir qator tibbiyot va ta’lim turizmini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki turizm jahon YAIMning qariyb 10 foizini ta’minlab bermoqda va 300 milliondan ortiq ish o‘rni yaratgan, ularning soni esa yil sayin o‘sib bormoqda. Mamlakat hududlarining o‘ziga xosligini inobatga olgan holda turizmning alohida yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish amaliyoti turistik mahsulotlar samaradorligini oshirish evaziga bozorni kengaytirishga yordam berishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining muhim tarmoqlaridan biri sifatida turizmning iqtisodiy ahamiyati ortib, u bog‘liq ko‘rsatkichlar ham so‘nggi yillarda yuqori sur‘atlarda o‘sib bormoqda. Ilmiy jihatdan tarmoqning xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ham ortishiga sabab bo‘lmoqda. Iqtisodiy o‘shida turizmning ahamiyatini, uning nafaqat xizmatlar balki tovarlar eksportiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qator Yevropa mamlakatlari misolida Isabel Cortés-Jiménez va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [2]. Biroq ushbu bog‘lanish intensivligi mahsulot turlaridan kelib chiqqan holda farq qilishi Portugaliya iqtisodiyoti misolida Madaleno A va boshqalar tadqiqotlarida aniqlangan [3]. Turizmning eksport hajmini kengaytirishdagi o‘rni hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishdagi ahamiyati, shuningdek mamlakat va turistik manzillarning jozibadorligini oshirish muammolari hamda hukumat tomonidan moliyalashtirish yo‘nalishlari Dedkova E va Gudkov A tomonidan tahlil qilingan [4].

Turizm sohasining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar, hududiy jihatlari va undan samarali foydalanish imkoniyatlari ham keng tadqiq etilgan. Xususan, raqobatbardoshlikning asosiy mezonlaridan biri sifatida mehnat kuchi va ilmiy salohiyatga e’tibor qaratilgan bo‘lib, Romao Joao tadqiqotida geografik, madaniy va institutsional omillarning yuqori ahamiyati ta’kidlangan [5].

Marsiglio 2018-yilda e’lon qilgan ishida turizm ixtisoslashuvi hamda iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan [6]. Unda turizmga ixtisoslashuv ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi asoslangan: bir tomondan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali qisqa muddatli o‘shishni ta’minlaydi, boshqa tomondan esa mavsumiylik va sikllilik tufayli iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Turizm ixtisoslashuvining alohida faoliyat turlariga ta’siri ham o‘rganilgan. Xususan, Dapeng Zhang va boshqalar Xitoy misolida turizmga ixtisoslashuv hamda bozor raqobati sharoitining mehmonxonalar faoliyatiga ta’sirini tahlil qilgan [7].

Fevzi Okumus va boshqalar tadqiqotlarida kichik va orol mamlakatlarning turizmga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyot o‘shishiga sezilarli darajada yuqori ta’sir

ko'rsatishi aniqlangan [8]. Texnologik ortda qolish va resurslar taqchilligi sharoitida turizm iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanishi qayd etilgan.

Yirik mamlakatlar tajribasida esa alohida hududlarni turizmga ixtisoslashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkinligi ko'rsatilgan. Bunda hududiy turizm klasterlarini tashkil etish keng qo'llaniladi.

Benidze tadqiqotida raqobatbardosh turizm yo'nalishlarida klasterlar tashkil etish faoliyat samaradorligini oshirishi va hamkorlikni kuchaytirishi ta'kidlangan [9].

Hududlarda klasterlarni tashkil etish imkoniyatlarini baholash metodologiyasi Mantseva tomonidan ishlab chiqilgan [10]. Turizm klasterlarini loyihalash va boshqarish masalalari Ivanova va boshqalar ishlarida ham yoritilgan [11].

Golondarev esa klasterlarning nafaqat hududiy, balki tarmoq yo'nalishida ham ixtisoslashishini asoslab bergan [12].

METODOLOGIYA

O'zbekistonda hududlarni turizmga ixtisoslashuvi, turizm klasterlarini tashkil etish bo'yicha adabiyotlarning qiyosiy tahlili, hududiy salohiyatning SWOT tahlili, hamda qator iqtisodiy ko'rsatkichlarning tizimli tahlili amalga oshirildi. Bunda Mantseva tomonidan taklif etilgan kompleks indikatorlar asosida hisoblash ishlari amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir islohot mamlakat ko'lamida amalga oshirilishida birinchi navbatda uning huquqiy-normativ asosi ishlab chiqiladi. O'zbekistonda ham 2022-2025-yillarda qariyb 30 ga yaqin turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan hukumat darajasidagi normativ hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning ichida turistik manzillar ixtisoslashuvi bo'yicha ba'zilarini ajratib ko'rsatish mumkin (1-jadval). Ushbu hujjatlarda asosiy e'tibor mamlakatimizning mavjud tabiiy salohiyatidan samarali foydalanish evaziga rekreasion turizmni rivojlantirish, safari va ov turizmi bo'yicha yangi manzillarni tashkil etish, bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlardan bo'lgan ekoturizmni kengaytirish bo'yicha aniq dasturlar, loyiha va rejalar keltirilgan.

O'zbekistonda jadal sur'atlarda o'sib borayotgan turistik yo'nalish bu ziyorat turizmi bo'lib, uning uchun alohida hududiy ixtisoslashuv masalasi nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunki Islom madaniyatiga oid, muqaddas sanalgan maskanlar respublikaning asosan uch hududida mujassamlashgan. Buxoro, Samarqand, Toshkentdan tashqari Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg'ona ham madaniy manzillar mavjud, biroq uning turistlarni jalb etish saloiyati yetarli darajada emas.

Turizm sohasiga qaratilayotgan e'tiborning sababini tushunish uchun birinchi navbatda uning raqamlariga to'xtalish lozim (2-jadval). O'zbekiston xizmatlar eksportining 2025-yil ko'rsatkichlari bo'yicha qariyb teng yarmi safarlar hissasiga to'g'ri kelgan. Navbatdagi yirik tarmoq esa transport bo'lib, turizmga nisbatan 34 foizga kam va ushbu ikki yo'nalish qariyb 83 foiz xizmatlar eksportini ta'minlamoqda. Shu jihatdan turizmning mamlakat eksportidagi ahamiyati yuqori baholanmoqda.

1-jadval.
Ixtisoslashuvni nazarda tutuvchi hujjatlar¹

Hujjat raqami	Nomi	Mazmuni
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabr PQ-376-son Qarori	Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida	Qashqadaryo viloyatida «Shahrisabz» va «Maydanak» turistik markazlarini tashkil etish - dam olish va rekreatsiya turizmi
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvar PQ-21-son Qarori	O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	26 ta qo‘riqxon, 27 ta suv havzasi, shuningdek Respublikaning har bir viloyatida ekohududlar tashkil etish va ekoturizmga ixtisoslashtirish
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabr PQ-335-son Qarori	O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida	6 ta viloyatning 15 hududida sog‘lomlashtirish markazlari, sanatoriylar hamda kurort zonalar tashkil etish
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabr PQ-394-son Qarori	2024-2026 yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	Xorazm viloyatida madaniy-tarixiy turizmni yanada rivojlantirish hamda safari-ov turizmini tashkil etish
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabr PQ-439-son Qarori	Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida	«Omonxona», «Sangardak», «Obihayot» turistik markazlarini tashkil etish va rivojlantirish
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-yanvar PF-15-son Farmoni	O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniyat va turizm sohasidagi aloqalarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	Madaniyat va san‘atni rivojlantirish hamda xalqaro aloqalar orqali madaniy-tarixiy turizm jozibadorligini oshirish

O‘zbekistonning hududiy salohiyatidan kelib chiqqan holda uch yo‘nalishda turizm manzillarini ixtisoslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish mumkin. Birinchidan, mamlakatimizda tog‘ hududlarida rekreatsiya va dam olish maskanlarini tashkil etish, mavjud hududlarda rivojlantirish lozim. Xususan, Zomin, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani, Namanganning Pop va Yangiqo‘rg‘on tumanlari, Farg‘ona viloyatining Shohimardon, Yordon aholi punktlari va Farg‘ona tumani, Surxandaryoning Boysun, Denov tumanlari hamda Qashqadaryoning Kitob va Shahrisabz tumanlarida mazkur imkoniyatlar mavjud. Ushbu hududlarda turli xorijiy mamlakatlardan tashrif buyuruvchilar uchun moslashtirish imkoniyatlarini ham ko‘rish

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mumkin. Transport infratuzilmasi xususiyatlarini inobatga olgan holda yaqin mamlakatlar uchun ixtisoslashtirish variantlari ham samarali yechim bo‘lishi mumkin.

2-jadval.

O‘zbekiston xizmatlar eksporti dinamikasi (million AQSh dollari)¹

Eksport	2021 -yil	2022 -yil	2023 -yil	2024 -yil	2025 -yil
Xizmatlar eksporti	2581,7	4456,7	5640,4	7204,4	9760,4
jumladan:	-	-	-	-	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash xizmatlari	12,9	16,5	24,2	23,1	26
Transport	1744,1	2204,7	2440,4	2571,5	3219,1
Safarlar (turizm)	422,1	1609,8	2143,1	3519	4880,3
Sug‘urta va pensiya xizmatlari	27,6	55	87,2	67,7	132,9
Moliyaviy xizmatlar	27,6	73,2	63,1	67,5	92,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan intellektual mulkdan foydalanish uchun to‘lovlar	0,6	1,2	20,3	10,5	8,6
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	180,7	305,8	540,4	619,8	921,5
Jismoniy shaxslarga xizmatlar va madaniyat va dam olish xizmatlari	1,4	1,3	11,2	5,4	19,4
Boshqa xizmatlar	164,7	189,1	310,7	320	460,2

Shu o‘rinda tibbiyot turizmi bo‘yicha ham mamlakatimizning jozibadorligi ortib borayotganini ta‘kidlash mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida tibbiy xizmatlarga ixtisoslashayotgan hudud sifatida tan olinmoqda. Xususan, Toshkent, Samarqand, Surxandaryo hamda Xorazm viloyatlarida tashkil etilayotgan xalqaro standartlarga mos klinikalar bu bozordagi mavqeni yanada mustahkamlashga, mos ravishda Qozog‘iston, Tojikiston, Afg‘oniston va Turkmaniston kabi qo‘shni mamlakatlar bozoriga chiqishga yordam beradi. Yaqin xorij mamlakatlaridan ushbu maqsadda mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar soni ortib borishi turistik xizmatlardan tushumning miqdor va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekiston hududlarida ekoturizmni rivojlantirish mamlakatimiz turizm sanoatini barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan yana biri hisoblanadi. Ekoturizm atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholining faol ishtiroki bilan tabiiy hududlarga sayohat qilishni o‘z ichiga oladi. Tabiiy landshaftlar, jumladan tog‘, cho‘llar, daryolar, ko‘llar va noyob qo‘riqxonalar xilma-xilligi tufayli O‘zbekistonda turizmning ushbu turini rivojlantirish uchun katta tabiiy salohiyat mavjud. Masalan, Jizzax viloyatining tog‘li hududlari va Zomin Milliy bog‘i toza havosi, o‘rmonlari va go‘zal manzaralari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Samarqand viloyatida Amonqutan darasining tabiiy hududlari mashhur. Navoiy viloyatida Sentob kabi tog‘li qishloqlarda qishloq va ekologik turizm faol rivojlanmoqda, bu yerda sayyohlar mahalliy aholining an‘anaviy turmush tarzi bilan tanishishlari mumkin. Surxondaryo viloyati ham muhim tabiiy boyliklarga, jumladan, sharsharalar, tog‘ landshaftlari va noyob bio-xilma-xillikka ega.

¹ <https://siat.stat.uz/reports-filed/1496/table-data> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orolbo‘yi mintaqasi va cho‘l tabiiy hududlaridagi ekologik yo‘nalishlari bilan o‘zining turistik jozibadorligini oshirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston hududlarining turizm sohasida ixtisoslashuvi xizmatlar eksportini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Hududiy resurslar, tabiiy-geografik sharoitlar, tarixiy-madaniy meros hamda mavjud infratuzilma imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali turizmning turli yo‘nalishlarini samarali rivojlantirish mumkinligi asoslandi. Xususan, rekreatsion, ziyorat, ekoturizm va tibbiy turizm yo‘nalishlari bo‘yicha hududiy ixtisoslashuvni shakllantirish turistik mahsulotlarning diversifikatsiyasini ta‘minlaydi hamda xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Turizm xizmatlari eksportining barqaror o‘sishi ko‘p jihatdan hududlararo muvofiqlashtirilgan rivojlanish, transport va servis infratuzilmasining takomillashuvi hamda marketing strategiyalarining samarali tashkil etilishiga bog‘liq. Turizm klasterlarini shakllantirish orqali xizmat ko‘rsatish zanjirining barcha bo‘g‘inlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish imkoniyati mavjud. Xizmatlar sifati oshishiga, xarajatlarning optimallashtirishiga va yakuniy mahsulot qiymatining ortishiga olib keladi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchi, hududlarning turizm yo‘nalishlari bo‘yicha aniq ixtisoslashuvini shakllantirish zarur. Bunda har bir viloyatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ustuvor turizm yo‘nalishlari belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi, turizm klasterlarini rivojlantirishga tizimli yondashuvni joriy etish lozim. Klaster doirasida mehmonxona xo‘jaligi, transport, ovqatlanish, madaniy xizmatlar va qo‘shimcha servis tarmoqlari o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi kerak.

Uchinchi, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Xususan, transport qulayligi, zamonaviy turar joylar, logistika tizimi va axborot xizmatlari sifatini oshirish turistlar oqimini kengaytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi, raqamli marketing va xalqaro targ‘ibot faoliyatini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn bronlash tizimlari orqali O‘zbekiston turistik salohiyatini global miqyosda targ‘ib qilish samarali natija beradi.

Beshinchi, kadrlar salohiyatini rivojlantirish zarur. Turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifati ko‘p jihatdan inson kapitaliga bog‘liq bo‘lganligi sababli, mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim.

Oltinchi, barqaror turizm tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekoturizm va resurslardan oqilona foydalanish orqali tabiiy muhitni asrash bilan bir qatorda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

Hududiy ixtisoslashuv va klaster yondashuvi asosida turizmni rivojlantirish O‘zbekiston xizmatlar eksportining tarkibiy tuzilmasini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni egallash hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Habibullayev. Turizm faoliyatini tashkil etishda xalqaro huquqning o‘rni. Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. Volume 3 Issue 2, Iyul 2025.
2. Isabel Cortes-Jimene, Manuela Pulina, Carme Riera i Prunera, Manuel Artis. Tourism and Exports as a means of Growth. Research Institute of Applied Economics 2009.
3. Madaleno, A., Eusebio, C., & Varum, C. (2017). Exports and Tourism: Testing the Causality. International Journal of Hospitality & Tourism Administration, 18(4), 444-458. <https://doi.org/10.1080/15256480.2017.1289140>
4. Dedkova, E., Gudkov, A. (2020). Tourism Export Potential: Problems of Competitiveness and Financial Support. In: Antipova, T. (eds) Integrated Science in Digital Age. ICIS 2019. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 78. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-22493-6_17
5. Romao, Joao. 2020. "Variety, Smart Specialization and Tourism Competitiveness" Sustainability 12, no. 14: 5765. <https://doi.org/10.3390/su12145765>
6. Marsiglio, S. (2018). On the implications of tourism specialization and structural change in tourism destinations. Tourism Economics, 24(8), 945-962.
7. Dapeng Zhang, Jinghua Tu, Lingxu Zhou, Zhiyuan Yu, Higher tourism specialization, better hotel industry efficiency?, International Journal of Hospitality Management, Volume 87, 2020
8. Fevzi Okumus, Dr Robertico Croes, Dr Joe Hutchinson D, Croes R (2013), "Tourism specialization and economic output in small islands". Tourism Review, Vol. 68 No. 4 pp. 34-48, doi: <https://doi.org/10.1108/TR-09-2013-0050>
9. Бенидзе Кристина Станиславовна Кластерный подход в развитии сферы туризма // Российское предпринимательство. 2017. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/klasternyy-podhod-v-razvitiy-sfery-turizma> (дата обращения: 04.03.2026).
10. Манцаева А. А., Деликова Т. Г. Система индикаторов для оценки потенциала формирования кластера в регионе // Вестник ВГУИТ. 2016. №4 (70). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-indikatorov-dlya-otsenki-potentsiala-formirovaniya-klastera-v-regione> (дата обращения: 04.03.2026).
11. R.Ivanova and others. Studying specialization as a factor in tourism cluster development Turismo: Estudos &Práticas (UERN), Mossoró/RN, Caderno Suplementar 02, 2020
12. Голондарев Клим Сергеевич Развитие туристского медицинского кластера Новой Москвы как основной элемент роста инновационного потенциала региона // Сервис в России и за рубежом. 2018. №4 (82). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-turistskogo-meditsinskogo-klastera-novoy-moskvy-kak-osnovnoy-element-rosta-innovatsionnogo-potentsiala-regiona> (дата обращения: 04.03.2026).
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabr PQ-376-son “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat

ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6679925>

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvar PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6759745>

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabr PQ-335-son O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7111500>

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabr PQ-394-son "2024 - 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7223758>

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabr PQ-439-son "Surxondaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7263277>

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-yanvar PF-15-son "O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniyat va turizm sohalaridagi aloqalarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-8027713>

19. Швец И. Ю., Формирование комплексной концепции инновационного развития сферы туризма на основе пространственно-региональной кластеризации. № 2 (26) 2013 • Вопросы новой экономике



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**